

**MAKEDONIYALIK ALEKSANDRNING SIYOSIY TARIXI VA IJTIMOIY  
IQTISODIY HAYOTI***Mirzaboyeva Umidaxon Usmon qizi**Urganch Davlat universiteti**Ijtimoiy – Iqtisodiy fanlar fakulteti**Tarix ( mintaqalar va yo'nalishlar bo'yicha )**yo'nalishi 1- bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola Aleksandr Makedoniskiy tarixining siyosiy tomonlarini o'rganadi. Hamda Makedoniyalik Aleksandrning ijtimoiy hamda siyosiy hayoti bilan tanishib chiqishga yodam beradi. Shu bilan birqalikda Aleksandre hayotini tarixiylik nuqtai nazaridan obyektiv tahlil etish va boshqa masalalar ushbu maqolaning maqsadi hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** Aleksandre Makedoniskiy, Flipp II , Falestra, Gerakl , Ptolomey, Issa jangi, Parmenion.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются политические аспекты истории Александра Македонского. Это также помогает познакомиться с общественно-политической жизнью Александра Македонского. В то же время объективный анализ жизни Александра с точки зрения истории и других вопросов является целью данной статьи.

**Ключевые слова:** Александр Македонский, Филипп II, Фалестра, Геракл, Птолемей, Битва при Иссе, Парменион.

**Abstract:** This article examines the political aspects of the history of Alexander the Great. It also helps to get acquainted with the social and political life of Alexander the Great. At the same time, objective analysis of Alexander's life from the point of view of history and other issues is the goal of this article.

**Keywords:** Alexander of Macedon, Philip II, Falestra, Heracles, Ptolemy, Battle of Issa, Parmenion.

**Aleksandr, Iskandar Maqduniy** uning nomi Sharq mamlakatlarida Iskandar deb atalgan . U butun jahonda nomi keng tarqalgan makedoniyalik sarkarda va davlat arbobi.

Aleksandr Makedoniya podshosi Filipp II va uning rafiqasi Olimpiadaning o'g'li. U yoshligida Aristoteldan ta'lim olgan,. Harbiy sirlarni ota-onasidan o'rgangan. 336-yil Filipp II fitnachilar tomonidan o'ldirilgach, Makedoniya taxtiga o'tirgan.

334-yil Aleksandr [Eronga](#) yurish boshlaydi; bu bosqinchilik urushi otasi Filipp II davridayoq boshlangan bo‘lib, uning o‘limi tufayli to‘xtab qolgandi. Aleksandr qo‘s Shinida sarkardalardan Antipatr, Parmenion, Ptolemey Lag va boshqa, shuningdek 30 mingga yaqin piyoda jangchi, 5 ming otliq, yengil qurollangan yordamchi otryadlar va 160 kema bo‘lgan.

Aleksandr Granik (334-yil), Iss (333-yil) va Gavgamel (331-yil) janglarida Doro III qo‘s Shinlarini yenggan. Aleksandr Eronning markaziy shaharlari — [Bobil](#), Suza, [Persepol](#), Ekbatana hamda Misrni egallagan.

Aleksandr Makedonskiy — zamonaviy madaniyat kontekstida hozirga qadar murojaat qilib kelinadigan kam sonli antik davr shaxslaridan biridir. Aleksandrning faoliyati ko‘p jabhada g‘arb davlatlarining yangi tarixidagi ayrim epizodlarni yodga soladi. Masalan, uning hozirgi Afg‘oniston va Iroqdagi kampaniyasi G‘arbning oxirgi o‘n yilliklarda ushbu mintaqadagi aralashuviga [o‘xshaydi](#).

Aleksandr turli tarix va madaniyatga ega xalqlarning yetakchisi bo‘lgan. Ba’zida mahalliy odatlар va dinini tushunmagani bois uning boshqaruvi omadsiz kechgan. Zamonaviy bosqichda Aleksandrning G‘arb va Sharq o‘rtasida ko‘prik qurishga bo‘lgan urinishlaridan ko‘plab darslar chiqarish mumkin.

Aleksandrni kim va qachon birinchi marta buyuk deb ataganini bilmaymiz. Aftidan, bu uning tirikligida sodir bo‘lmagan. Tarixchilarining hisoblashicha, uni ilk bor eramizdan oldingi I asrda **Rim komediyasida “buyuk” deyishgan**. Ushbu komediyada Magnum ismi qo‘llanilgan, bu lotinchada “buyuk” degani. Eramizdan oldingi 323-yilda vafot etguniga va eramizning I asrga qadar uni “buyuk” deya ta’riflash boshlangan.

Taxminlarga ko‘ra, rimliklarning bunday deyishiga Aleksandr hukmonligi davrida o‘limlar sonidan kelib chiqilgan: g‘olib rimlik sarkarda Rim ko‘chalari bo‘ylab olamon orasidan tantanali yurib boriladigan taqdirlash marosimiga qadar **5 ming nafar dushmani o‘ldirishi kerak bo‘lgan**. Aleksandr esa o‘z yurishlarida yuz minglab insonlar umriga zomin bo‘lgan, hozirgi Afg‘oniston va Hindiston hududida butun boshli qabilalarni qirib tashlab, haqiqiy genotsid uyushtirgan. Agarda Aleksandr bugungi zamonda yashaganida uni harbiy jinoyatlari uchun tribunalga yuborgan bo‘lishardi, ammo antik davrda uning harbiy g‘alabalari strategik daho sifatida baholangan va qurbanlar sonining ko‘pligi rimliklarni o‘ziga jalb etgan.

Aleksandr hayotidagi eng muhim inson — bu uning otasi Filipp II Makedonskiydir. O‘z podshohligi uchun qilgan ishlar nuqtayi nazaridan qaraladigan bo‘lsa, **Filipp Aleksandrdan yaxshiroq shoh edi**. Aleksandrdan farqli o‘laroq u o‘limiga qadar oddiy makedon jangchisiligicha qolgan. Filipp Aleksandr kabi ulkan imperiyani egallamagan, ammo shoh sifatida xalqining yaxshi yashashi uchun majburiyatlarini bajargan. Antik davrdagi ayrim tarixchilar uni Aleksandrdan yaxshiroq deya hisoblagan.

Aleksandr bolaligidan yuqori intellekt sohibi edi. 6 yoki 7 yoshida lirada kuy chala olgan, katta yoshli insonlar bilan turli mavzularda suhbatlar qurgan. U butun grek adabiyotini o‘qib chiqqan, Gomer eng sevimli yozuvchisi edi. Aleksandr 14-16 yoshga to‘lganida Aristotel unga ustozlik qila boshlagan. Ammo baribir Aleksandrga ko‘p ta’sirni Aristotel emas, balki otasi Filipp o‘tkazgan. Aleksandr hayotining katta qismi davomida unga taqlid qilishga uringan, ulg‘ayib shaxsiy harbiy muvaffaqiyatlarga erishganidan keyin Filippdan o‘zib ketishni istagan.

Aleksandrni bolaligida qizlar qiziqtirmagan. Hayotining bu tomoni uning ota-onasini tashvishga solgan: Filipp va Olimpiada o‘g‘li 14—18 yoshga to‘lganida unga fohisha yollagani haqida ma’lumotlar mavjud, ammo yigit qizni rad etgan. Ayrim manbalarda keltirilishicha, u birinchi bor Barsina ismli ayol bilan qovushgan. Bu voqeа eramizdan oldingi 333-yilda Issa jangidan keyin sodir bo‘lgan, qo‘mondonlardan biri Barsinani uning oldiga olib kelgan. Aleksandr bu vaqtda 23 yoshda edi. Shundan so‘ng **Aleksandr va Barsina nikohdan o‘tmagan bo‘lsa-da**, birga yashay boshlagan. Oradan olti yil o‘tgach, Barsina unga Gerakl ismli o‘g‘il tug‘ib bergen. Shu yillarda Aleksandr baqtriyalik Roksanaga uylangan edi.

Ko‘plab ma’lumotlarda Aleksandrning erkaklar bilan aloqasi keltiriladi, jumladan, do‘sti Gedestin bilan ham. Ammo bular o‘ylab topilgan bo‘lishi kerak, chunki u hayoti davomida yurishlari bilan dong qozongan Makedoniya shohi edi, tarix bo‘lsa, odatda bunday insonlarni aslidan ko‘ra bo‘rttiribroq ifodalaydi. Bir safar Amazonka malikasi Falestra Aleksandr bilan uchrashadi va ular ikki hafta davomida tinimsiz ishqiy munosabatda bo‘ladi. Ma’lumki **amazonkalar o‘zlarining jangovar qobiliyati** va kuchi bilan tanilgan qabila bo‘lib, ularni qirolicha boshqargan. Aftidan, Aleksandrning propaganda mashinasi uni ommaga maqtab ko‘rsatish maqsadida Falestra haqidagi voqeani o‘ylab topgan. Imperator bilan bog‘liq propaganda soni shu qadar ko‘p bo‘lganidan afsonalar ortidagi haqiqiy Aleksandrga yetib borish mushkul.

Aleksandr 33 yoshga to‘lishidan bir necha oy oldin vafot etgan. Uning o‘limi borasida ko‘plab konspirologik versiyalar mavjud, biroq u tabiiy o‘lim topgandi. Aleksandr Hindistonda og‘ir yaralangan. Tabib uning ko‘ksiga tekkan o‘jni chiqarib olganida yaradan qon bilan birga havo ham chiqqa boshlagan. Bu **o‘pkaning teshilganidan dalolat beradi**. Aleksandr o‘ziga kelishi uchun bir necha kun kerak bo‘lgan va u shu qadar kuchsizlanib qolganidan shohni lagerga ko‘tarib olib borishgan. U juda ko‘p yaralangan bo‘lsa-da, bo‘kib ichish odatini tashlamagandi.

Aleksandr piyanista bo‘lmasa-da, ko‘p ichardi. Makedoniyaliklar vaqtiga vaqtiga bilan ichkilik ziyofatlarini uyshtirib turgan bo‘lib, u ba’zida bir necha kunga cho‘zilib ketgan. Eramizdan oldingi 324-yilda uyshtirilgan mashhur ziyofatda Aleksandr kim ko‘p ichish bo‘yicha musobaqada qatnashgan. Shu kuni **o‘ndan ortiq inson ortiqcha alkogol iste’mol qilgani uchun** vafot etgandi. Makedoniyaliklar toza vino ichgan, greklar esa unga suv aralashtirishni ma’qul ko‘rgan. Aleksandr ziyofatlarda ichib

turgan, ammo jangga otlanganida yoki kurash rejasini tuzayotganida hech qachon mast bo‘lman. Ziyofat boshlangach esa to‘xtovsiz ichgan.

Urushlar davomida orttirgan barcha jarohatlariga qaramay, Aleksandr o‘zining yashash tarzini o‘zgartirmagan. Tarixchilarning fikricha, unda alkogol pankreatiti kuzatilgan. Bir safar u ziyofatda bo‘kib ichgach, yotog‘iga ketayotganida do‘sstaridan biri shunday degandi: “*Yana bittadan olaylik!*”. Aleksandr ortiga qaytgan va yana ichishni davom ettirgan.

Aleksandr o‘zidan keyin qonuniy merosxo‘r qoldirmagan: u vafot etganida rafiqasi Roksana homilador edi. Bir necha hafta o‘tgach ayol o‘g‘il dunyoga keltiradi va oxir-oqibat u Aleksandr IV ga aylangan. Aleksandr vafot etganida Bobilning butun qo‘mondonligi to‘planib, **endi qanday yo‘l tutish rejasini tuzgan**. Bu konstitutsiyaviy inqiroz edi: Aleksandrning merosxo‘ri hali dunyoga kelmagandi. Qo‘mondonlar Roksana farzandini dunyoga keltirgunga qadar, Aleksandrning ukasi Filipp Arridiy shoh vazifasini bajarishiga kelishgan. **Aleksandr IV tug‘ilganida** u ham shohga aylangan va natijada dualistik monarxiya paydo bo‘lgan. Oliy qo‘mondonlik imperiyani o‘zaro bo‘lishib olgan.

Armiya bosh qo‘mondonining o‘rinbosari Perdikka imperiyaning yangi poytaxtiga aylanishi kerak bo‘lgan Bobil nazoratini qo‘lga kiritgan, qolganlar bo‘lsa boshqa yerkarni bo‘lishib olgan. Ptolemey Misrni egallab, o‘z sulolasiga asos solgan. Bu odamlar juda shuhratparast bo‘lgan, bir-birlaridan nafratlangan, ehtimol Aleksandr bunga ataylab erishgan: **u o‘z qo‘mondonlari birlashib, taxtga da‘vogarlik qilmasligi uchun** ularni bir-biriga urushtirib qo‘ygandi. Uning o‘limidan bir yil o‘tib, aynan shu qo‘mondonlar bir-biri bilan janglarni boshlagan va bu urushlar 40 yil davom etgan.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI.

1. Kovalev S. I., Aleksandr Makedonskiy, L., 1937;
2. Trever K., Aleksandr Makedonskiy v Sogde, „Vestnik istorii“, 1947, № 5;
3. Bertels Ye. E., Roman ob Aleksandre i yego glavnie versii na Vostoke, M.- L., 1948.
4. R.Rajabov – “Qadimgi Dunyo Tarixi” “Fan va texnologiya” Toshkent 2009. 289- bet.
5. Q. Usmon, M.Sodiqov, S.Burxonova – “Iqtisod -Moliya” Toshkent 2016. 44- 48 betlar